

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING DAVLATNI BOSHQARISHDA
DESTRUKTIV G'UYALARGA QARSHI OLIB BORGAN FAOLIYATI**

Madraximov Vaisbay Baxtiyarovich

O'R Qurolli Kuchlari Akademiyasi kafedra boshlig'ining o'rinbosari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning davlatni boshqarishda destruktiv ta'sirlarga qarshi olib borgan chora-tadbirlari tahlil qilindi. U o'z davlatini har qanday kutilmagan voqealardan, destruktiv ta'sirlardan saqlashni, himoya qilishni bilgan. Ularga qarshi qattiq chora-tadbirlarni ko'rgan. Amir Temur arkoni davlatda halol, sidqidildan xizmat qilganlarni taqdirlab, martabalarini yuksaltirgan, ig'vogar, zulmkorlarning qattiq jazosini bergan. Uning fe'l-atvorida ikkilanish, og'machilik, bugun bir so'zni aytib, ertasiga unga qarama-qarshi boshqa so'z aytish bo'lmaganligi ham maqolada yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Osiyo va Yevropa, harbiy tashkilotchi, sarkarda, davlat arbobi, saltanat, sulola, adolat, Oqsaroy, barqarorlik, destruktiv, siyosiy, madaniy, kuchli, mustahkam, xalq, farovon.*

Zahiriddin Muhammad Bobur yuksak fazilatli sarkarda va podshohdir. U Hindiston tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lib, Boburiylar sulolasiga asos soldi.

Bobur davlat qurilishi ishida, Hindistondan ulkan mamlakat tarixida burilish yasash, uni yaxlit saltanat darajasida ko'rish va boshqarish maqsadida qator yangiliklarga qo'l urdi, idora usulida qonuniy asoslarni joriy etdi. Bu harakatlar zamirida, ayniqsa, shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilashga alohida e'tibor qaratdi. Zahiriddin Bobur saltanatni boshqarish bilan birga davlat mudofaa tizimini mustahkamlashda katta ishlarni amalga oshirdi. Milliy artilleriya, harbiy-dengiz flotiga asos soldi, bular barchasi Hindistonning tarixiy taraqqiyotida muhim burilish yasadi. Shu bilan birga bu mamlakatning tarixida mutlaqo yangi davr - boburiylar saltanati davrini boshlab berdi. Boburiylar sulolasi mazkur o'lkada 332 yil hukmronlik qilib, uning madaniyati, san'ati, arxitekturasi, umuman, davlat qurilishi va boshqaruvida yangi davlatchilik asoslarini mustahkamladi, diplomatik munosabatlarning shakllanishiga zamin hozirladi¹.

Zahiriddin Muhammad Bobur doimo adolatli, markazlashgan davlat tarafdori bo'lgan va davlatni odil, adolatparvar podsho yoki shoh boshqarishi kerak deb hisoblagan. Uning fikricha, davlat boshlig'i hamisha oddiy, mehnatkash xalq haqida o'ylashi va g'amxo'rlik qilishi zarur².

¹ O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2014 yil. №19-son.

² Bobur. Tanlagan asarlar. T., "O'qituvchi". 1976, 74-bet.

Bobur o'z hayoti davomida adolatsizlik, zulmni ta'qiqlashga va destruktiv (buzg'unchi) g'oyalarga qarshi choralar ko'rgan. "Boburnoma"da bir navkar zabt etilgan yurtida bironing bir ko'za yog'ini zo'rvonlik bilan tortib olgani uchun, ibrat bo'lsin deb, kaltaklashganini so'zlaydi. Bobur munofiqlik, ko'zbo'yamachilik va xiyonatni sezganda, uni keskin yo'qotish tadbirini ko'rgan. Jumladan, G'aznada makr bilan qabrni tebratib, xalqni laqillatayotgan aldamchilarni sinchkovlik bilan fosh etadi. Ular faoliyatini ta'qiqlaydi³.

"Boburnoma"da davlatni idora qilishning o'sha davr taomillarini ifoda qiluvchi shunday mulohazalarni uchratamiz: "Mamlakat podshohsiz bo'lmas; podshohlik jahongirliksiz bo'lmas"⁴.

Tarixiy kitoblarda Boburga yuksak baho berib, uning sakkiz fazilatini sanab o'tadilar: " Sakkiz sifati asil aning zotig'a muttasil erdi: birisi bukim, najhati baland erdi; ikkinchisi, himmati arjumand erdi; uchunchisi, viloyat olmog'; to'rtunchisi, viloyat saxlamog'; beshinchisi, ma'murlig'; oltinchisi, rafohiyat niyati Tangri taolo bandalarig'a; yettinchisi, cherikni ko'ngli(ni) qo'lg'a olmoq; sekkizinchisi, adolat qilmoq".

Bobur asos son-sanoqsiz istiqomat qilganlar.

Davlat haqidagi qarashlarida davlatlarni ikki turga bo'lib ko'rsatgan:

solgan ulkan saltanatda xalqlar va elatlar Bobur va uning

Adolatli, markazlashgan davlat

Adolatsiz, tarqoq davlat

avlodlarni bu masalada nihoyatda oqilona siyosat yurgizganlar.

Ular barcha diniy va madaniy kamsitishlarga chek qo'yishga, bir qancha xurofiy urf-odatlarini bartaraf etishga, mahalliy va xorijiy xalqlar madaniyatini o'rganishga harakat qilganlar⁵. Adolatni ixtiyor qilgin. Shunda shoh raiyatdan, raiyat shohdan xotirjam bo'ladi. Islomning taraqqiyoti ehson tig'i bilan yaxshiroqdir, zulm tig'i bilan emas. Ahli sunnat va shialarning ikir-chikirlaridan ko'zingni yum. Chunki islomga qarshilar bor. Turli e'tiqoddagi xalqlarni teng tutginki, shunda saltanat turli tashvishlardan xoli bo'ladi. Hazrat Sohirqiron Amir Temurning ish yuritishlari doimo yodingda bo'lsin. Shunda davlating ma'mur va puxta bo'ladi....⁶.

³ O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2007 yil. №7-son.

⁴ Abdunabiev.A. Millatimiz iftixori. Sharq yulduzi.1996 yil.№ 3.105-bet.

⁵ Mashrabov Z, Jalilov S. Buyuk sarkarda e'tiqodi. 28.10.2014. Ziyo uz.

⁶ Bobur Z.M. Boburnoma. Toshkent. "Sharq". 2002, 331-bet.

Boburning ijtimoiy-siyosiy va harbiy faoliyatida davlatdorlik tajribasini majmui hisoblangan "Temur tuzuklari" asari eng muhim yo'l-yo'riq, ko'rsatuvchi manbaa bo'lib xizmat qilgan. Ulug' bobosi Amir Temurning tuzuklari shahzodalarni jangu jadalga o'rgatishda, ilm-fanga ixlosmand qilib tarbiyalashda hayotiy tajribalarga asoslangan asar bo'lgan. Movarounnahr va Afg'onistonda bo'lib o'tgan janglarda qo'llangan "to'lg'ama" jang uslubi va Boburshoh o'zi orttirgan jangovar tajribalarini Hindiston uchun bo'lgan hayot-mamot janglarida mohirona qo'llashi uni atoqli sarkarda bo'lib tarbiya topganidan dalolat beradi. Boburshoh ushbu taktik amaliyotni o'zlashtirib, Hindiston uchun bo'lgan janglarda muvaffaqiyat bilan qo'lladi.

Jiddiy g'animga qarshi kurashga tayyorlanar ekan Bobur o'z islomiy e'tiqodining mustahkamligini tasdiqlovchi yana bir tadbir ko'radi: u sharob ichishga qarshi o'zining tarixiy farmonini qabul qiladi. Alohida chuqur qazdirib g'aznadan uning uchun olib kelingan sharobni to'ktiradi. May ichadigan oltin qadahlarni toshga urib sindirtirishni buyuradi. Nufuzli beklarning 300ga yaqini uning qaroriga qo'shilib, ular ham ichmaslikka qasamyod qilishadi. Boburshohning bu harakatlari qo'shin qalbini yangi bir hissiyot bilan to'ldiradi. Boburshoh musulmon bo'lmaganlardan olinadigan "tamg'a" solig'ini ham rasmiy tarzda bekor qiladi va qo'shindagi askarlar ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Boburshoh qo'shiniga to'g'ridan-to'g'ri murojaat etib, ularni jangga ruhlantiradi⁷.

Boburshoh g'alabalarining siri yana shunda ediki, u o'ziga el bo'lgan xalqlarni qattiq turib himoya qilar, askarlarning beboshliklariga keskin choralar ko'rar, shu yo'l bilan oddiy odamlar mehrini, Xudoning rizosini topar topar edi⁸.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Boburning davlat boshqaruvidagi olib borgan faoliyati va o'z hayoti davomida adolatsizlik, zulmni ta'qiqlashga va destruktiv (buzg'unchi) g'oyalarga qarshi qat'iy choralar ko'rganligi, hamda "Boburnoma"da qayd etilganidek bir navkar zabt etilgan yurtda bironing bir ko'za yog'ini zo'ravonlik bilan tortib olgani uchun, ibrat bo'lsin deb, kaltaklashgani hamda Boburning munofiqlik, ko'zbo'yamachilik va xiyonatni sezganda, uni keskin yo'qotish tadbirini ko'rgani, unda G'aznada makr bilan qabrni tebratib, xalqni laqillatayotgan aldamchilarni sinchkovlik bilan fosh etib, faoliyatini ta'qiqlashda amalga oshirgan tadbirlari bo'yicha dunyo olimlari tomonidan yuqori baholaganlar. Uning ilmiy merosi, davlat boshqaruvidagi va buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurash choralari tajribalari bo'yicha olingan bugungi kun uchun dolzarb ibrat maktabi bo'lmoqda.

⁷ O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2007 yil. №7-son.

⁸ Vatanparvar gazetasi. 2023 yil. №6-son.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston adabiyoti va san'ati.2014 yil.№19-son.
2. Abdunabiev.A. Millatimiz iftixori. Sharq yulduzi.1996 yil.№ 3.105-b.
3. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2007 yil. №7-son.
4. Zokirjon Mashrabov, Sayfiddin Jalilov. Buyuk sarkarda e'tiqodi.Chop etilgan. 28.10.2014. Ziyozuz.
5. Bobur Z.M. Boburnoma. Toshkent. "Sharq". 2002, 331-bet.
6. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2007 yil №7-son.
7. Vatanparvar gazetasi. 2023 yil. №6-son.

